


### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 3 344,9 mlrd.so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 3 238,9 mlrd.so‘mni (104,8 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd.so‘mni (102,0 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari- 41,6 mlrd.so‘mni (101,8 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari - 64,3 mlrd.so‘mni (106,4 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘rish sur‘atlari**



Xususan, yuqori o‘rish sur‘ati Qo‘shko‘pir (145,8 foiz), Bog‘ot (107,3 foiz) va Xiva (105,5 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Urganch (98,6 foiz) va Hazorasp tumanlarida (99,8 foiz) kuzatildi.


**Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulot (xizmat)larining  
hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)**



Viloyatning qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar boʻyicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Qoʻshkoʻpir tumanida - 12,1 foiz, Urganch tumanida -10,9 foiz, Gurlan tumanida -10,3 foiz, Xiva tumanida-10,1 foizni tashkil etdi. Xiva shahrida 0,5 va Tuproqqalʼa tumanida- 2,3 foiz koʻrsatkich bilan keyingi oʻrinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,5 foiz) qayd etildi.


Qishloq xoʻjaligi sohasida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 3 194,3 mlrd.soʻmlik qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmining oʻsishi 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 117,3 foizni va chorvachilik mahsulotlari 104,2 foizni tashkil qildi.


**2023- yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2023- yil yanvar- mart oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 87,9 foizini (2022- yil yanvar- mart oylarida – 92,3 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 5,3 foizi ishlab chiqarilgan (2022- yil yanvar- mart oylarida 5,1 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 6,8 foizi (2022- yil yanvar- mart oylarida – 2,6 foiz) ishlab chiqarilgan.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi**






2023- yilning yanvar- mart oylarida 3 194,3 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 154,3 mlrd.so‘mga teng qismi yoki 4,8 foizi dehqonchilik, 3 040,0 mlrd.so‘mga teng qismi yoki 95,2 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Yangiariq tumani (15,9 foiz), Bog‘ot tumani (11,7 foiz), Yangibozor tumanida (8,2 foiz) yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Urganch shahrida dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilmagan, Hazorasp tumanida -0,6 foiz, Qo‘shko‘pir tumanida- 0,7 foiz, Shovot tumanida - 0,9 foiz, dehqonchilik mahsulotlari salmog‘ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko‘rsatkichlari Urganch shahrida (100,0 foiz), Hazorasp tumanida (99,4 foiz) Qo‘shko‘pir tumanida (99,3 foiz) qayd etildi.

### Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2023- yilning yanvar- mart oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumanida (13,8 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (13,8 foizi) va Hazorasp tumanida (97,0 foizi), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xiva shahrida (9,9 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Yangiariq tumani (18,3 foizi) va Hazorasp tumanida (23,7 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal’a tumanida (54,8 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qo‘shko‘pir tumanida (29,6 foizi) hamda Yangiariq tumanlarida (12,4 foizi) qayd etildi.



**Dehqonchilik.** 2023- yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 154,3 mlrd.soʻmni yoki jami yetishtirilgan qishloq xoʻjalik mahsulotlarining 4,8 foizini tashkil qildi. 2022- yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 117,3 foizni, jumladan, fermer xoʻjaliklarida 64,6 mlrd.soʻmni (101,8 foiz), dehqon va tomorqa xoʻjaliklarida 22,3 mlrd.soʻmni (100,7 foiz), qishloq xoʻjalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 67,4 mlrd soʻmni (146,7 foiz) tashkil qildi.

#### Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xoʻjaliklar toifalari boʻyicha taqsimlanishi



■ Fermer xoʻjaliklari

■ Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari


■ Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

**Hosil yig'imi.** 2023- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 423 tonna sabzavot (134,9 foiz) yetishtirildi.



**Chorvachilik.** 2023- yilning yanvar - mart oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 3 040,0 mlrd so'mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 104,2 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 103,6 mlrd so'mni (99,7 foiz), dehqon va tomorqa xo'jaliklari xo'jaliklarida 2 787,2 mlrd so'mni (100,6 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 149,2 mlrd so'mni (4,0 marta ko'p) tashkil qildi.

**Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)**






2023 - yilning 1 - aprel holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,0 foizni (jami 958,9 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,3 foizni (364,9 ming bosh), qo'y va echkilar 105,1 foizni (489,7 ming bosh), otlar 100,9 foizni (5,8 ming bosh), parrandalar 108,3 foizni (6548,3 ming bosh) tashkil qildi.


### Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo'jaliklar toifalarining ulushi

2023- yilning 1- aprel holatiga



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 90,8 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,3 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 80,8 foizni tashkil etdi.

### 2023- yil yanvar - mart oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jaliklar toifalarining ulushi





**2023- yil 1- aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**


	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>958,9</b>	<b>101,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	71,8	104,4
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	874,1	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	13,0	1,5 m.
<b>ulardan: sigirlar</b>	<b>364,9</b>	<b>101,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	29,3	103,5
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	330,8	100,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	4,8	171,4
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>489,7</b>	<b>105,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	<b>76,3</b>	<b>110,4</b>
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	385,6	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	27,8	2,2 m.
<b>Otlar, bosh</b>	<b>5794</b>	<b>100,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	757	104,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	4981	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	56	127,3
<b>Parrandalar</b>	<b>6548,3</b>	<b>108,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	960,3	109,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	3942,2	101,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1645,8	130,1

**2023- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan  
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>42,5</b>	<b>110,2</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	0,9	102,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	37,7	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	3,9	16,7 m.
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>211,4</b>	<b>100,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	10,0	101,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	200,0	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1,4	101,7
<b>Tuxum, mln dona</b>	<b>96,5</b>	<b>95,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	9,7	107,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	68,3	101,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	18,5	74,2
<b>Jun, tonna</b>	<b>78</b>	<b>106,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	17	130,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	59	100,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2	2,0 m.
<b>Qorako'l teri, dona</b>	<b>1642</b>	<b>104,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	53	108,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	1559	102,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	30	-

2023- yilning yanvar- mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 168,2 mlrd.so‘mni yoki 2022- yilning tegishli davriga nisbatan 100,5 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 5,3 foizni tashkil etdi.

**Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)**



2023- yilning 1- aprel holatiga fermer xo‘jaliklarida 71,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 29,3 ming bosh sigir, 76,3 ming bosh qo‘y va echki, 757 bosh ot, 960,3 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2022 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 104,4 foizni, shu jumladan, sigirlar 103,5 foizni, qo‘y va echkilar 110,4 foizni, otlar 104,8 foizni, parrandalar 109,7 foizni tashkil qildi.

**2023 - yilning yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**



	yanvar-mart				2022- yanvar-mart oylariga nisbatan foiz hisobida
	2022- yil		2023- yil		
	tonna	umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Sabzavot	129	3,8	141	3,0	109,3
Go‘sh, tirik vaznda	897	2,3	918	2,2	102,3
Sut	9952	4,7	10050	4,8	101,0
Tuxum, ming dona	9047	9,0	9732	10,1	107,6
Jun, tonna	13	17,8	17	21,8	130,8
Qorako‘l, dona	49	3,1	53	3,2	108,2

**2023- yil 1- aprel holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

**Yirik shoxli qoramollar (bosh)**  
**Jami viloyat bo'yicha 958 877**





**shu jumladan, sigirlar (bosh)**  
**Jami viloyat bo'yicha 364 945**







**Qo'ylar va echkilar ( bosh)**  
**Jami viloyat bo'yicha**  
**489 709**




**Parrandalar (ming bosh)**  
**Jami viloyat bo'yicha**  
**6548,3**




**2023 - yilning yanvar- mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi  
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Go'sht (ming tonna)****Jami viloyat****bo'yicha 42,5****Sut (ming tonna)****Jami viloyat****bo'yicha 211,4****Tuxum (mln dona)****Jami viloyat****bo'yicha 96,5****Jun (tonna )****Jami viloyat bo'yicha 78**

**Baliq (tonna)**  
**Jami viloyat**  
**bo'yicha 2669,6**



**Sabzavot (tonna)**  
**Jami viloyat bo'yicha 4 623**



**2023- yil 1- aprel holatiga hududlar kesimida fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar soni**

Shahar va tumanlar nomi	Fermer xo'jaliklari, soni	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar,soni	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar, soni
Bog'ot	415	2	251
Gurlan	470	4	491
Qo'shko'pir	496	2	340
Urganch	707	5	457
Hazorasp	447	1	119
Tuproqqal'a	287	2	112
Xonqa	533	2	333
Xiva	368	5	302
Shovot	610	1	208
Yangiariq	379	4	263
Yangibozor	512	1	221
Urganch sh	-	9	98
Xiva sh	-	1	110
<b>Viloyat jami</b>	<b>5224</b>	<b>39</b>	<b>3305</b>

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**O'rmon xo'jaligi** – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliqchilik xo'jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

**Fermer xo'jaliklari** - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.